

10-SINF. JAHON TARIXI
CHSB-1

I variant
Sinf _____

Sana: _____
O'quvchining F.I.SH. _____

1. Quyidagi qaysi davlat Uchlar ittifoqi harbiy-siyosiy bloki tarkibiga kirgan? (Bilish–2,5 ball)

A) Rossiya B) Fransiya C) Avstriya-Vengriya D) Angliya

2. 1889-1890-yillarda bo'lib o'tgan va qul savdosini taqiqlagan konferensiyani belgilang. (Bilish–2,5 ball)

A) London konferensiyasi B) Bryussel konferensiyasi
C) Berlin konferensiyasi D) Parij konferensiyasi

3. Quyidagi qaysi voqea Rossiya tarixiga oid? (Bilish–2,5 ball)

A) 1878-yili o'z mustaqilligini e'lon qildi
B) 1908-yili Avstriya tomonidan anneksiya qilindi
C) 1917-yil fevralda inqilob sodir bo'ldi
D) 1867-yili imperiya konstitutsiyasi qabul qilindi

4. Buyuk Britaniyaning Birinchi jahon urushidan keyingi tarixiga oid ma'lumotlarni belgilang. (Qo'llash – 4,5 ball)

1. Franklin Ruzvelt prezidentlik qildi;
2. Jahon iqtisodiy inqirozi iqtisodiyotga unchalik katta ta'sir qilmadi;
3. Neytralitet haqida qonun qabul qilindi;
4. Hokimiyatga o'nglar kelgandan so'ng fashistik rejim o'rnatilishi real xavfga aylandi;
5. AQSHdan va o'z dominionlaridan qarzdor bo'lib qoldi;
6. Konservatorlar yetakchisi Nevill Chamberlen Myunxen kelishuvini imzoladi.
A) 1, 3, 4 B) 2, 5, 6 C) 1, 3, 5 D) 2, 3, 6

5. Mavzu yuzasidan olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi fikrlarga “ha” yoki “yo‘q” deb javob bering. (Qo'llash – 4,5 ball)

№	Mulohaza uchun ma'lumot	Ha	Yo'q
1	Sidney Tomas joriy etgan po'lat eritishning yangi usullari uni ishlab chiqarishni keskin oshirib, tannarxini arzonlashtirdi		
2	Napoleon urushlarining yakunlanishi Yevropada taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi		
3	Angliya uzoq yillar jahon siyosatida yetakchi o'rinni egallab, “jahon ustaxonasi” degan nom oldi		
4	Pyer Martin kashf etgan suyuq cho'yanni tozalash usuli fosfatlarga boy temir rudalaridan foydalanish imkonini yaratib, mahsulot sifatini oshirdi		

A) 1-yo'q, 2-yo'q, 3-ha, 4-ha B) 1-ha, 2-yo'q, 3-yo'q, 4-ha
C) 1-yo'q, 2-ha, 3-ha, 4-yo'q D) 1-ha, 2-ha, 3-yo'q, 4-yo'q

6. Davlat va uning XIX asr oxiri va XX asr boshidagi tarixiga oid ma'lumot mos berilgan javobni toping. (Qo'llash – 4,5 ball)

1. Fors davlati; 2. Turkiya; 3. Xitoy; 4. Yaponiya.
a) 1905-1911-yillarda burjua-demokratik inqilob sodir bo'ldi;
b) San Stefano nomli joyda ruslar bilan sulh imzolandi;
c) Tokugava syogunligi ag'darildi;

d) mamlakatning 400 mln aholisidan 90% i savodsiz edi.

A) 1-b, 2-c, 3-d, 4-a B) 1-a, 2-b, 3-d, 4-c

C) 1-d, 2-b, 3-a, 4-c D) 1-a, 2-c, 3-b, 4-d

7. Tarixiy-mantiqiy ketma-ketlik (moslik) to'g'ri berilgan javobni toping. (Qo'llash – 4,5 ball)

A) AQSH – Vudro Vilson – yangi erkinlik deb atalgan siyosiy dasturini taklif qildi

B) Koreya – Sun Yatsen – Gomindan partiyasiga asos soldi

C) Hindiston – Svami Vivekananda – Hindiston milliy kongressi asoschisi

D) Turkiya – Sulton Abdulaziz – “Midhat konstitutsiyasi”ni bekor qildi

8. Shaxs va davlat juftligi mos berilgan javoblarni toping. (Qo'llash – 4,5 ball)

№	Shaxs	Davlat
1.	Mustafo Kamol	Turkiya
2.	U Peyfu	Jazoir
3.	Farhod Abbos	Italiya
4.	Adolf Gitler	Germaniya

A) 2, 3 B) 1, 2 C) 3, 4 D) 1, 4

9. XIX asrning 60-90-yillarida adabiyot (a) va tasviriy san'at (b) sohalarida ijod qilgan Amerika madaniyati vakillarini belgilang. (Qo'llash – 4,5 ball)

A) a – Jeyms Uistler, b – Mark Tven B) a – Tomas Ikins, b – Mark Tven

C) a – Uolt Uitmen, b – Tomas Ikins D) a – Tomas Ikins, b – Jeyms Uistler

10. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, yakuniy xulosasi to'g'ri yoki noto'g'riligini toping. (Mulohaza –5,5 ball)

	Voqea	Natiija
1	Angliyada parlament va saylov islohotlari davom ettirildi	Jamoa palatasining ustuvorligi aniq belgilab qo'yildi
2	Fransiya-Prussiya urushi sodir bo'ldi	Urush prussiyaliklar g'alabasi bilan yakunlandi
3	Avstriya-Vengriya imperiyasi konstitutsiyasi qabul qilindi	Vengriya imperatori birlashgan imperiya hukmdori bo'ldi

A) 1-to'g'ri, 2-noto'g'ri, 3-to'g'ri B) 1-to'g'ri, 2-to'g'ri, 3-noto'g'ri

C) 1-noto'g'ri, 2-to'g'ri, 3-noto'g'ri D) 1-noto'g'ri, 2-noto'g'ri, 3-to'g'ri

